

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA

**O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MUXAMMAS JANRI: GENEZISI, BADIY
TAKOMILI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI OLIISH
UCHUN TAQDIM ETILGAN DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philological Sciences Degree (DSc)

Boltayeva Gulchehra Shokirovna

О‘zbek she‘riyatida muxammas janri: genezisi, badiiy takomili.....5

Болтаева Гулчехра Шокировна

Жанр мухаммас в узбекской поэзии: генезис, художественное развитие.....34

Boltaeva Gulchekhra Shokirovna

The mukhammas genre in Uzbek poetry: genesis, artistic improvement.....68

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....72

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA

**O‘ZBEK SHE’RIYATIDA MUXAMMAS JANRI: GENEZISI, BADIY
TAKOMILI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI OLIISH
UCHUN TAQDIM ETILGAN DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida № /B2021.4.DSc/Fil350 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Quvvatova Dilrabo Xabibovna

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yusupova Dilnavoz Rahmonovna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kobilova Zeboxon Bakirovna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Muxitdinova Nazmiya Muslixiddinovna

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Xojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44); faks: (99871) 281-42-44); faks: (99871) 281-12-44). (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____) raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, faks: (99871) 281-12-44 (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ da tarqatildi.

(2024-yil “_____” _____ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

H.A.Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, f.f.d.(DSc), professor

N.A.Jabborov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida muayyan lirik janr nazariyasi, genezisi, spetsifikasi, tadrijiy takomili, unda kechgan transformatsion jarayonlar, poetika masalalari, vazn va qofiya xususiyatlari, obrazlar tizimi, kompozitsiyasi, badiiy-estetik xususiyatlari va voqelikni talqin qilishda poetik tafakkur taraqqiyoti hamda ijtimoiy muhit bilan aloqadorlikda tekshirilishiga alohida diqqat qaratilmoqda. Jumladan, Sharq adabiyotida ko‘p asrlik taraqqiyot jarayonini bosib o‘tgan muxammas janri tabiati, tadrijiy takomili va poetik xususiyatlari, undagi shakl va mazmun yangilanishlari, poetikasi, mavzu doirasi, obraz va tasvirdagi o‘ziga xoslik, an‘ana, vorisiylik va novatorlik masalalari, ta‘bi xud muxammas va taxmislarning spetsifik belgilari, janr strukturasi sinkretlashuv jarayonlarini yoritish kabi qator muammolarni yaxlit holda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida lirik tur janrlari nazariyasi, ularning spetsifik xususiyatlari, an‘ana, vorisiylik va novatorlik masalalari, musammat she‘r tizimi, undagi janrlarga xos jihatlar, badiiy tili, timsollar tizimi, kompozitsiyasi, g‘oyaviy-estetik xususiyatlarini yoritib berish yo‘nalishida izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan musammat tizimida muxammasning o‘rni, janr tabiati, xalq og‘zaki ijodidagi genezisi, yozma adabiyotda shakllanishi, mavzu-mundariyasi, ichki ko‘rinishlari, ta‘bi xud muxammas va taxmislarning spetsifik belgilari, muxammas strukturasi sinkretlashuv jarayonlari, janr taraqqiyotida kechgan adabiy an‘ana va izdoshlik masalalarini yoritishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunosligida mumtoz she‘riy janrlarning hayot va inson taqdiri, o‘tmish va kelajak, din, axloq, falsafa va adabiyot bilan bog‘liq tomonlarini kengroq mushohada qilish, badiiy so‘z san‘atining ta‘sir quvvati va ahamiyatini to‘g‘ri baholash, janr nazariyasini takomillashtirish muammolari tadqiqiga katta e‘tibor berilmoqda. Zero: “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma‘naviyati ko‘zgusi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta‘sirchan kuchi beqiyos”¹. Binobarin, mumtoz adabiyotning an‘anaviy she‘riy janrlari, jumladan, muxammaslar ham xalqning orzu-umidlari, ma‘naviy qiyofasini o‘ziga xos shaklda aks ettirib, inson qalbida hayotga muhabbat va yashash zavqini kuchaytirishga xizmat qilgan janr namunalaridir. Shu jihatdan axloqiy, ma‘rifiy, irfoniy, hayotiy, ishqiy mazmunlarni ifodalovchi muxammas janrining o‘zbek adabiyotida yaratilgan namunalarini yaxlit badiiy tizim sifatida tekshirish, uning tarixiy-tadrijiy takomilini Sharq xalqlari, qolaversa, o‘zbek xalqining milliy-ruhiy dunyosi, asrlar davomida shakllangan ma‘naviy-madaniy qadriyatlari, urf-odatlari bilan bog‘liqlikda yoritish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Тошкент шаҳридаги Адиблар хиббонига ташрифи чоғида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2020 йил 21 май, №106 (7608).

21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonlari, 2010-yil 26-fevraldagi PQ-1292-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida “Ijod” fondini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va yangi adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida” Farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Lirika janrlari, musammatlar, uning tarkibiga kiruvchi muxammas nazariyasi, uning genezisi va badiiy takomilini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, University of Goethe (Germaniya), University of Emory, University of Boston (AQSH), Istanbul universiteti, Ankara universiteti (Turkiya), M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Tver davlat universiteti, Qozon Federal universiteti, Rossiya davlat ijtimoiy-gumanitar fanlar universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Qozoq davlat pedagogika instituti (Qozog‘iston), Magtumquly Turkmen State University (Turkmaniston), Baku davlat universiteti, Muhammad Fuzuliy nomidagi qo‘lyozmalar instituti (Ozarbayjon), Tojik Milliy universiteti, Rus-Tojik (slavyan) universiteti (Tojikiston), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

O‘zbek she‘riyatida muxammas janri genezisi, badiiy takomili yuzasidan jahon adabiyotshunosligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: poetik janrlar masalasi (University of Goethe, Germaniya) yoritilgan; muxammasning o‘ziga xos janriy tabiati asoslangan

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://kpfu.ru/>, <https://www.tgpu.tj/>, <https://www.rtsu.tj/>, <https://www.kaznpu.kz/ru/>, <http://www.manuscript.az/>, <https://spbu.ru/>, <https://tversu.ru/>, <https://www.msu.ru/>, <http://tdu.edu.tn/>, <http://bsu.edu.az/ru/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

(M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya); musammat shakllarining qasidalardan o'sib chiqqanligi, muxammas genezisi, shakllanish asoslari yoritilgan (Tojik Milliy universiteti, Rus-Tojik (slavyan) universiteti, Tojikiston); muxammas tasnifi, an'ana va novatorlik masalalari tekshirilgan (Tver davlat universiteti, Qozon Federal universiteti, Rossiya davlat ijtimoiy-gumanitar fanlar universiteti, Rossiya Federatsiyasi); muxammas strukturasi sinkretizm hodisasi va janrning poetik xususiyatlari ochib berilgan (Baku davlat universiteti, Muhammad Fuzuliy nomidagi qo'lyozmalar instituti, Ozarbayjon); lirik janrlar taraqqiyoti, transformatsiyasi, sinkretizm hodisasi asoslangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston).

Jahon adabiyotshunosligida muxammas janri bo'yicha, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: musammat tizimining mumtoz va zamonaviy adabiyotdagi takomil xususiyatlarini ochib berish, muxammas genezisining xalq lirikasi, dostonlari, arab, fors-tojik adabiyoti bilan bog'liqligini yoritish; muxammasning spetsifik xususiyatlarini aniqlash, tasnifiga oid qarashlarni ifoda etish, adabiyotshunoslikda muxammas bilan bog'liq mavjud qarashlarni tizimlashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotida mustahkam o'rin egallagan muxammas janri va uning turli davrlarda yaratilgan namunalari rus adabiyotshunosligida Y.Bertels, I.Filshtinskiy, L.Frizman, B.Shidfar, I.Stebleva, D.Frolov, M.Suvorov, Z.Djandosova, A.Pilyev, tojik adabiyotshunosligida A.Mirzoyev, B.Sirus, S.Imronov, Sh.Rahmonov, R.Musulmonqulov, A.Shaxriyor, A.Abdusattorov, J.Hikmatov, D.Hakimov, tatar adabiyotshunosligida A.Yaxin, M.Bakirov, G.Gilmanov, X.Usmonov, X.Minnegulov, D.Zagidullina, X.Kurbatov, ozarbayjon adabiyotshunosligida H.Arasli, M.Arif, M.Ismoilzoda, J.Nagiyeva, P.Karemov, N.Mustafayeva kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida arab, fors-tojik, turkman, tatar, qirg'iz, ozarbayjon aruzi va musammatlariga doir ilmiy-nazariy qarashlarida o'rganilgan³.

³ Бертельс Е.Э. Избранные труды. I том. История персидско-таджикской литературы. – М.: ИВЛ, 1960. – 562 с.; Бертельс Е.Э. Избранные труды. IV том. Наваи и Джами. – М.: ИВЛ, 1965. – 498 с.; Фильштинский И.М. Арабская классическая литература. – М.: Наука, 1965. – 311 с.; Фильштинский И.М. Арабская литература в средние века. – М.: Наука, 1977; Фильштинский И. М. Арабская литература в Средние века. VIII–IX вв. – М.: Наука, 1978. – 291 с.; Фильштинский И.М. История арабской литературы. V – начало X века. – М.: Наука, 1985. – 342 с.; Фризман Л.Г. Жизнь лирического жанра. – М.: Наука, 1973. – 145 с.; Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (VI–XII вв.). – М.: Наука, 1974. – 190 с.; Стеблева И.В. Поэзия тюрок VII–VIII веков. – М.: Наука, 1965. – 148 с.; Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – М.: Наука, 1971. – 300 с.; Стеблева И.В. Теория жанров литератур Востока. – М.: Наука, 1985. – 263 с.; Фролов Д.В. Классический арабский стих. История и теория аруда. – М.: Наука, 1991. – 247 с.; Суворов М.Н., Джандосова З.А., Пылев А.И. Средневековая литература мусульманского мира. – Санкт-Петербург: Президентская библиотека, 2015. – 77 с.; Мирзоев А. Сайидо и его место в истории таджикской литературы / А. Мирзоев. – Сталинабад, 1947. – 158 с.; Сирус Б. Арузи тоҷики. – Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1963. – 250 с.; Имронов С. Взгляд на мусамматный мухаммас / С.Имронов // Садои Шарк, 1983, № 4. – С. 92-99. (на тадж. яз.); Рахмонов Ш. Мусаммат, его формирование и эволюция / Ш.Рахмонов. – Душанбе: Дониш, 1987. – 172 с.; Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (VII–XV вв.). – М.: Наука, 1989. – 222 с.; Шахрияри А. Становление “новых стихов” в таджикской поэзии. АКД. – Душанбе, 2002. – 24 с.; Дж.Хикматов. Мухлис Бадахшани и его мухаммасы. АКД. – Душанбе, 2010. – 24 с.; А.Абдусатторов. Арабско-испанские предпосылки возникновения мусаммата. Вестник Таджикского университета права, бизнеса и политики, 2012. – С.208-213; Д.Хакимов. Формирование жанра мухаммас в

O‘zbek adabiyotshunosligida esa A.Fitrat, M.Shayxzoda, I.Sulton, S.Mirzayev, U.To‘ychiyev, A.Rustamov, Y.Ishoqov, A.Hayitmetov, O.Nosirov, A.Abdug‘ofurov, R.Orzibekov, A.Hojiahmedov, H.Boltaboyev, Sh.Sirojiddinov, N.Jabborov, N.Afoqova, I.Adizova, D.Yusupova, B.Qodirov, M.Berdimurodova, M.Tojiboyeva, N.Muxitdinova, Z.Qobilova, G.Xalliyeva, Sh.Rahmonova, Y.Maxammadiyeva, T.Ruziboyev, F.To‘xtamuratov, Sh.Amonovlarning tadqiqotlarida o‘zbek aruzining turli qirralarini yoritish asnosida mazkur janr nazariyasi bilan bog‘liq ilmiy kuzatishlar mavjud⁴.

персидско-таджикской литературе XII – XIX вв. АКД. – Душанбе, 2017. – 24 с.; Яхин А. Г., Бакиров М.Х. Фольклор жанрларын система итеп тикшеру тэжрибэсе. Казан.ун-ты нашр., 1979. – 240 с.; Яхин А.Г. Система татарского фольклора. – Казань, 1984. – 198 с.; Бакиров М.Х. Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований. АКД. – Казань, 1972. – 75 с.; Бакиров М.Х. Генезис и древнейшие формы общетюркской поэзии. Автореф. дисс. доктора филол. наук. – Казань, 1999. – 96 с.; Бакиров М.Х. Шигърийят бишеге. Гомумтерки поэзиянен, яралуы ьэм иц борынгы формапары. – Казан: Мэгариф, 2001. – 343 б.; Гильманов Г.Х. Татарская баллада (Истоки и этапы развития). – Казань, 1989. – 192 с.; Усманов Х.У. Древние истоки тюркского стиха. – Казань: Казанский университет, 1984; Усманов Х.У. Древние истоки тюркского стиха. – Казань: Казанский университет, 1984. – 148 с.; Усманов Х.У. Тюркский стих в средние века. – Казань: Казанский университет, 1987. – 144 с.; Мицнегулов Х.Й. Газэл. Касыйдэ. Робагый. Кыйсса. Мэрсия. Мэдхия. Фэрд. Нэсыйхэт. Хикмэт. Мэкалэлэр // Эдэбиат белеме сузлеге / Тезучеред. – А.Г.Эхмэдуллин. – Казань, 1990. – 125 б.; Загидуллина Д.Ф. Формирование и этапы становления теории татарской литературы. Автореф. дисс. доктора филол. наук. – Казань, 2001. – 70 с.; Загидуллина Д.Ф. Эдэбиат кануннары. Иэм заман (Татар эдэбиат нэзариясенен, барлыкка килуе ьэм усеш баскычлары). – Казан, 2000. – 271 б.; Загидуллина Д.Ф. Метод. Стилъ. Жанр. – Казан, 1976. – 223 б.; Курбатов Х.Р. Иске татар поэзиясендэ тел, стилъ, метрика ьэм строфика. – Казан, 1984. – 164 б.; Шарипов А. Система стихотворных жанров в древнетюркской и тюрко-татарской литературе VIII-XIV вв. (зарождение, становление и функционирование). Автореф.дисс.док.филол.наук. – Казань, 2001. – 84 с.; Araslı Nəmid. Böyük Azərbaycan şairi Füzuli. – Bakı: Azərbaycan Uşaq və Gənclər Ədəbiyyatı, 1958. – 312 s.; Araslı Nəmid. Azərbaycan ədəbiyyatı tarixi və problemləri. Bakı: Gənclik, 1998. – 732 s.; Ариф М. Азербейджанская литература. – М.: 1979. – 232 с.; Xətai Şah İsmayıl Səfəvi. Külliyyatı/ Tərtibçi: Mirzə Rəsul İsmayilzadə. – Tehran: Əlhuda, 2004. – 98 s.; Nağıyeva Cənnət. İki təxmis. Azərbaycan Elmlər Akademiyası Məruzələri. 1985, №11; П.Каримов. О нововывявленных Азербейджанских тюркоязычных поэтических произведениях XVII века. – Баку: Туркология, № 5-6, 2008. – С.26-30; Kərimov Paşa. XVII əsr anadilli Azərbaycan lirikası. – Bakı: Elm və Təhsil, 2012. – 46-51 s.; Mustafayeva Nailə. Füzuli və müasirlərinin müxəmməsləri barədə. Risalə. Araşdırmalar toplusu. 12-ci kitab. – Bakı: Elm və Təhsil, 2016. – 83-97 s.; Nailə Mustafayeva. XX əsr Azərbaycan ədəbiyyatında müxəmməs janrında yazılmış şeirlərin mövzu dairəsi. – Bakı: Elm və Təhsil, 2020. – 143-153 s.; Н.Мустафаева. Жанр «мухаммас» в Азербейджанской литературе XVIII века // Закарпатські філологічні студії. – Ужгород : Видавничий дім "Гельветика", 2018. – Т. 1.№//Вип. 3. – С. 142-145.

⁴ Фитрат А. Адабиёт коидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.; Шайхзода М. Асарлар олти жилдлик. IV жилд. Ғазал мулкининг султони. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 372 б.; Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent.: O‘qituvchi, 2005. – 270 b.; Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: Фан, 1985. – 376 б.; Рустамов Э.Р. Узбекская поэзия в первой половине века. – М.: ИВЛ, 1963. – 371 с.; А.Ҳайитметов А. Навоий лирикаси (тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр). – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 328 б.; А.Ҳайитметов. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 167 б.; Носиров О. Ўзбек адабиётида ғазал. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 134 б.; Носиров О ва бошқалар. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 182 б.; Абдуғофуров А. Алишер Навоий мусамматлари. //Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. №1. –Б. 27-33.; Орзиеков Р. Ўзбек адабиётида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976. – 120 б.; Orzibekov R. O‘zbek lirik she‘riyatı janrları. – Toshkent: Fan, 2006. – 350 b.; Ҳожиаҳмедов А. Шеърлий санъатлар ва мумтоз кофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 150 б.; Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малохати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 240 б.; Болтабоев Х. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талқинлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 340 б.; Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 576 b.; Сирожиддинов Ш. Эркин Воҳидов ижодида ғазал // Эркин Воҳидов ижодини маънавий ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамияти (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). – Тошкент: Навоий, 2017.; Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърлят. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015. – 304 б.; Афоқова Н. Жадид лирикасида мусаммат. – Тошкент: Фан, 2005. – 24 б.; Афоқова Н. Жадид шеърляти поэтикаси (вазн ва кофия муаммолари). – Тошкент: Фан, 2005. – 140 б.; Адизова И. Увайсий ижодида жанрлар тақомили. – Тошкент: Muharrir, 2011. – 164 б.; Adizova I. Mavjudni mavjlantirgan naziralar// “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent, 2021. – B.191-197.; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator o'zbek hamda jahon adabiyotshunoslarining ilmiy izlanishlari e'tiborga olindi. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, muxammas janri tabiati, uning shakllanish asoslari, janr strukturasi kechgan transformatsion jarayonlar, poetikasi, zamonaviy she'riyatdagi badiiy takomili yaxlit tarzda tekshirilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Tadqiqot Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2021-2025-yillarga mo'ljallangan "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek adabiyotida yaratilgan muxammaslarning janr tabiati, genezisi, spetsifik xususiyatlari, unda kechgan transformatsion jarayonlar, badiiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o'zbek adabiyotshunosligida muxammas janri nazariyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarning nazariy asoslarini yoritish;

o'zbek mumtoz adabiyotida muxammasning shakllanishi va janr tabiatiga xos spetsifik xususiyatlarni aniqlash;

muxammasning mazmun va shakliga ko'ra ichki janr ko'rinishlarini tasniflash;

zamonaviy o'zbek she'riyatida yaratilgan muxammaslarning janr strukturasi yangilanishlarni asoslash;

muxammasning badiiy tili, mavzu ko'lami, vazn va qofiya xususiyatlarini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida XV-XXI asr o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatida yaratilgan muxammaslar tanlangan (Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Shohg'arib Mirzo, Mashrab, Turdi, So'fi Olloyor, Huvaydo, Munis, Ogahiy, Haziniy, Nodira, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Anbar Otin, Komil Xorazmiy, Yusuf Saryomiy, Hamza, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Habibiy, Chustiy, Charxiy,

mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: TA'LIM-MEDIA, 2019. – 184 b.; Yusupova D. Alisher Navoiy taxmislari. <http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumtoz/1267-maqola.html>. 21.08.19; Qodirov V. Xozirgi zamon'zbek gazallari poetikasining ayrim xususiyatlari. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1993. – 26 b.; Berdimurodova M. Muhammad Yusuf Rojii Xorazmiy davri. Xa'eti. Adabiy merosi. – Toshkent: Muharrir, 2013. – 152 b.; Tojiboeva M. Jaded adiblari ijodida mumtoz adabiyot an'analari va ma'horat masalalari. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2017. – 260 b.; Muxitdinova N. Mirhasan Sadoiy va uning adabiy merosi (she'riyat poetikasi, go'yiviy-badiiy ta'hlil masalalari). Filol. fan. nomz. diss. avtorref. – Samarqand, 2017. – 44 b.; Muxitdinova N. XVIII-XIX asrlar birinchi yarmi'zbek she'riyatida salaflar an'analari ning poetik takomili (Muhammad Fozii va Mirhasan Sadoiy ijodi misolida). Filol. fan. dok. (DSc) diss. – Samarqand, 2021. – 245 b.; Kobilova Z. Badiiy ijodda ta'gir va izdoshlik masalalari (Amiriy she'riyat misolida): Filol. fan. dok. (DSc) diss. avtorref. – Farqona, 2021. – 77 b.; Hollijeva G. Oga'iiy musammatlari. Filol. fan. nomz. diss. avtorref. – Toshkent, 2000. – 24 b.; Ra'xonova S. XX asr ikkinchi yarmi'zbek she'riyatida aruzning poetik shakl va mazmun takomilida i'ri. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2020. – 182 b.; Ma'hammadijeva Y. Feruzning badiiy ma'horati. Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2021. – 132 b.; Ru'ziboev T. Taxmis genezisi, ta'driji, janr xususiyatlari va poetikasi (Alisher Navoiy taxmislari misolida). Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtorref. – Namangan, 2022. – 26 b.; To'xtamuratov F. Muhsiniy adabiy merosi: manbalari, matn tarixi va ta'hri. Filol. fanlari b. fals. dok. (PhD) diss. avtorreferati. – Toshkent, 2023. – 57 b.; Amonov Sh. Ahmad Tabiiy turkiy devonlari qo'lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. Filol. fan. dok. (DSc) diss. – Toshkent, 2023. – 277 b.

Sobir Abdulla, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Jamol Kamol, Omon Matjon, Mahmud Toir).

Tadqiqot predmetini o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatida muxammas janri genezisi, badiiy takomili, muxammas strukturasi sinkretizm hodisasi va janrning poetik xususiyatlari, yangi o'zbek she'riyatida muxammas janri transformatsiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, lingvistik, germeneytik, psixologik, biografik, analitik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

muxammas genezisi folklor: xalq lirik qo'shiqlari, erkalamalar, dostonlari, bilan bog'liqligi, ularda lirizm va voqeabandlik xususiyatlarining uyg'unlashganligi, beshlik bandlarning ishq-muhabbat mavzusida yozilganligi, takrorning bayt tarje'i, misra tarje'i tarzida namoyon bo'lishi aniqlangan;

XV-XIX asrlar o'zbek mumtoz she'riyatida muxammas janrining yetakchilik qilganligi, ularning mavzu jihatidan xilma-xillik kasb etganligi, ishqiy muxammaslarda an'anaviy poetik obrazlar ustunlik qilishi, qofiyadosh so'zlar ohangdoshlik bilan birga kalit so'z vazifasini bajarishi; diniy-ma'rifiy muxammaslarda Qur'oni karimdan oyatlar, hadislar mazmunining singdirilganligi; ijtimoiy muxammaslarda zamona amaldorlarining o'tkir hajv ostiga olinganligi dalillangan;

muxammas badiiy strukturasi sinkretlashuv jarayonlari, boshqa lirik janrlarga munosabati; qasida-muxammas, marsiya-muxammas, sayohatnoma-muxammas, muvashshah-muxammas, mustazod-muxammas, munojot, muloqot, salomnoma, savol-javob, bag'ishlov yo'nalishidagi muxammas shakllariga xos xususiyatlar, yangi o'zbek she'riyatida muxammas janri transformatsiyasi, an'anaviylik va novatorlik belgilari, ijtimoiylikning kuchayishi kabi jihatlar isbotlangan;

jadidchilik davri muxammasnavisligida Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi shoirlarning ijodiy an'alariga adabiy izdoshlik lirik obrazlar (oshiq-ma'shuqa-raqib uchligi) tasvirida, mavzu tanlash (ishqiy, diniy-ma'rifiy)da namoyon bo'lganligi; yangilanishlar esa ijtimoiy-madaniy hayot, ilm-ma'rifat, millat taqdiri, yurt qismati ifodasida kuzatilganligi bilan bog'liq jihatlar Hamza, Sidqiy Xundayliqiy, Ibrat singari shoirlar she'rlari misolida ochib berilgan;

yangi o'zbek adabiyotida muxammaslarning aruz va barmoq vaznlarida baravar yozilganligi, taxmislari g'azallardan tashqari masnaviy shaklidagi she'rlarga ham bog'langanligi, hayotsevarlik, vatanparvarlik mazmuni ustuvorlik qilganligi, sinkretizmning muxammas-faxriya, muxammas-madhiya, muxammas-bag'ishlov ko'rinishlarida namoyon bo'lganligi Chustiy, Charxiy, Sobir Abdulla, G'afur G'ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Jamol Kamol she'rlari misolida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

muxammas spetsifikasi, o'zining janr tabiatiga egaligi, kechinma va tuyg'ularning real ifoda etilishi, mazmunida adabiy ta'sir va individuallikning yetakchilik qilganligi; ularning ijtimoiy, falsafiy, diniy-tasavvufiy, dunyoviy,

ishqiy, hajviy mavzularda yaratilganligi, g‘oyaviy-badiiy o‘ziga xosliklari aniqlangan;

ohangdor va o‘ynoqi xalq navolari, mumtoz she‘riyatimizda o‘ziga xos o‘rin tutuvchi muxammaslar asosida kuylanadigan diltortar qo‘shiqlar qatorida betakror “Lazgi” taronasi matnining g‘oyaviy-badiiy tahlili, ularda qo‘llangan tasvir va ifoda vositalarining o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan;

sobiq sho‘ro davri muxammasnavisligida adabiy izdoshlik va ijodiy mahorat kuzatilganligi, poetik mazmun va g‘oya uyg‘unligi kabilar, Istiqlol yillari muxammaslarida vazn mutanosibligi, aruz va barmoqning baravar qo‘llanganligi, tanqidiy-hajviy ruh, ma‘rifiy mazmunning kuchayganligi singari jihatlar aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma‘lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning qiyosiy-tipologik, lingvistik, germenevtik, psixologik, biografik va analitik tahlil usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati muxammas janri nazariyasi, uning spetsifik xususiyatlari, genezisi, badiiy takomilini yoritib berishga oid nazariy xulosalardan adabiy turlar va janrlar poetikasi yo‘nalishidagi ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “Adabiyotshunoslik asoslari”, “Adabiyot nazariyasi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon” fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanma, majmualar yaratishda; adabiyotshunoslik lug‘atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “O‘zbek she‘riyatida muxammas janri: genezisi, badiiy takomili” mavzusida erishilgan ilmiy natijalardan:

muxammasning tarixiy takomili, taraqqiyot tamoyillari, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini asoslashga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 – “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 17-oktyabrdagi № 01/10/-2155-raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan muxammaslarning poetik xususiyatlari, Alisher Navoiy taxmislari va XV asrdan keyin o‘zbek she‘riyatida mazkur janr namunalari uning ta‘siri, muxammas badiiy srukturasidagi sinkretlashuv jarayonlari, boshqa lirik janrlarga munosabati, qasida-muxammas, marsiya-muxammas, sayohatnoma-muxammas, munojot yo‘nalishidagi muxammas shakllariga xos xususiyatlar, ularda an‘anaviylik va novatorlik belgilari kabi masalalar ilmiy dalillar asosida o‘z isbotini topgan;

muxammas genezisi va janr poetikasini yaxlit bir tizim sifatida o‘rganish, janr taraqqiyotining xalq lirik qo‘shiqlari, erkalamalar, dostonlar bilan bog‘liqligi,

ular da lirizm va voqeabandlik xususiyatlarining uyg'unlashganligi, ma'no va mazmun ko'lamining adabiy-tarixiy jarayonga aloqador jihatlari, obraz va tasvirdagi poetik transformatsiya, lirik janrlarning o'zaro mushtarak va farqli jihatlari ochib berishga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258. "O'zbek adabiyotining ko'p tili (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 10-oktyabrdagi №01/10/-2058-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada muxammas janrining Sharq she'riyatida tutgan o'rni, uning o'zbek mumtoz adabiyotida takomili va badiiy xususiyatlari, istifoda etilish darajasining ijtimoiy-estetik sabablari, janr taraqqiyotida ulug' salaflar ijodiga murojaat masalalarini aniq baholash imkonini bergan;

jadidchilik davri muxammasnavisligida Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi shoirlarning ijodiy an'analarga adabiy izdoshlik lirik obrazlar (oshiq-ma'shuqa-raqib uchligi) tasvirida, mavzu tanlash (ishqiy, diniy-ma'rifiy)da namoyon bo'lganligi; yangilanishlar esa ijtimoiy-madaniy hayot, ilm-ma'rifat, millat taqdiri, yurt qismati ifodasida kuzatilganligi bilan bog'liq jihatlari, janrning bu davr adabiyotidagi mazmun-mohiyati va badiiy-estetik ahamiyatini ochib berishga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan IZ-2021020813. "Alisher Navoiy ijodining xorijda o'rganilishi va targ'iboti asosida ko'p tili multimedia to'plamini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 1-dekabrdagi № 01/4/-2563-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek adabiyotida muxammaslarning aruz va barmoq vaznlarida baravar yozilganligi, taxmislar g'azallardan tashqari masnaviy shaklidagi she'rlarga ham bog'langanligi, hayotsevarlik, vatanparvarlik mazmuni ustuvorlik qilganligi, janrda sinkretizm belgilari faxriya-muxammas, bag'ishlov-muxammas ko'rinishlarida namoyon bo'lganligi borasidagi ma'lumotlarni boyitish va aniqlashtirishga xizmat qilgan;

muxammaslar asosida yaratilgan sho'x, o'ynoqi, ohangdor xalq qo'shiqlari, jumladan, betakror "Lazgi" taronasi matnining g'oyaviy-badiiy tahlili, unda qo'llangan go'zal qochirim, obrazli ifoda va poetik tasvir vositalarining badiiy-estetik qimmatiga oid ilmiy xulosalardan Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining "Adabiy muhit", "Til – millat ko'zgusi" ko'rsatuvlarining 2023-yil 25-sonidagi senariysida foydalanilgan (Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 21-noyabrdagi № 01-10/187-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek mumtoz adabiyotida muxammasning genezisi, taraqqiyot bosqichlari, tadrijiy takomili, badiiy kamoloti, mazmun mundariyasi va obrazlar tizimi, muxammasnavislik va taxmisnavislikning o'ziga xos mavqeini belgilash, undagi transformatsion jarayonlarni o'rganish, qasida-muxammas, marsiya-muxammas, sayohatnoma-muxammas, mustazod-muxammas, munojot yo'nalishidagi muxammaslar yaratilganligini ilmiy mushohada qilish orqali, janrlarning spetsifik xususiyatlarini to'g'ri va aniq baholashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 19 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 14 ta xalqaro anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 32 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 11 faslni o'z ichiga olgan 4 asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 266 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, xorijiy adabiyotlar sharhi berilgan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchligi va amaliyotga joriy etilishi, nazariy va amaliy ahamiyati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'zbek adabiyotida muxammasning kelib chiqish asoslari va shakllanishi**" tarzida sarlavhalangan va uch fasldan tarkib topgan. "*Muxammas janri tabiati, o'ziga xos xususiyatlari*" deb nomlangan dastlabki faslda muxammas tabiati janr nazariyasiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlar va turli lug'atlar yordamida yoritilgan. Jumladan: "Muxammas (muxammaz arabcha. خمس) "beshlik" degan ma'noni anglatib, Yaqin va O'rta Sharq hamda O'rta Osiyo she'riyatining bandli she'r shaklidir. She'rning har bir bandi 5 misradan iborat bo'lib, 3 misra she'r muallifiga tegishli, qolgan 2 misra esa boshqa bir she'rdan olingan misralardir"⁵. Bu ta'rif ko'proq taxmis mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, muxammasning hamma bandlari bir shoir qalamiga mansub bo'lsa, mustaqil muxammas hisoblanadi. Chunki musammatlar g'azalning har bir bayti ustiga 1 misradan 8 misragacha qo'shish natijasida yuzaga keladi. Muxammas esa g'azal bayti tepasiga uch misra qo'shish orqali hosil qilinadi. Shu bilan birga, muxammas bog'lanayotgan she'r mazmunan bir-biriga yaqin bo'lishi lozim. Dastlab yaratilgan muxammaslar mustaqil bo'lib, ular tushkun kayfiyatlarni o'zida aks ettirgan. Muxammasning qofiya tuzilishi ham o'ziga xos: birinchi bandning misralari umumiy qofiya (radif)ga ega bo'lib, qolgan bandlar mustaqil qofiyaga ega bo'ladi. Ba'zan beshinchi misra barcha bandlarda takrorlanadi. Ya'ni shoir band shakli va qofiyani o'zgartirishi mumkin. Shu asosda

⁵Словарь литературоведческих терминов / Ред.-сост.: [Л.И.Тимофеев](#) и [С.В.Тураев](#). – М.: «Просвещение», 1974. – С. 229. – 509 с. Квятковский А.П. Поэтический словарь / Науч. ред. И. Роднянская. – М.: Сов. Энцикл., 1966. – 376 с.

janr ta'rifi va xususiyatlari yoritilgan turli lug'atlardan⁶ foydalanib, muxammas haqidagi qarashlar umumlashtirilgan. Xususan, arab adabiyotida "beshburchak", "beshburchakli", "pentagramma" terminlari ham muxammasga nisbatan sinonim sifatida ishlatilganligi dalillangan. A.Husayniy, H.V.Koshifiy, Y.Bertels, N.Osmanov, S.Ayniy, A.Mirzoyev, S.Imronov, Sh.Husaynzoda, R.Musulmonqulov, X.Mirzozoda, Y.Boboyev, A.Sherdo'st, S.Shamiso, Sh.Rahmonov, J.Hikmatov, D.Hakimov, A.Fitrat, I.Sulton, M.Shayxzoda, V.Abdullayev, O.Nosirov, A.Rustamov, A.Abdug'afurov, A.Hayitmetov, R.Orzibekov, N.Jabborov, D.Yusupova, Z.Qobilova, M.Tojiboyeva, G.Xalliyeva singari olimlarning bu boradagi qarashlari tahlil etilgan. Muxammas haqida ilk ma'lumotlar A.Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida uchraydi: "Musammati muxammas besh misra bo'lur. To'rt misraning oxirinda sab qilib beshinchi misrada asl qofiyaga ruju qilurlar"⁷. Atoullloh Husayniy XII asrda ijod qilgan Azxariy ismli shoirning muxammasini keltiradi va fors-tojik adabiyotida XII asrda muxammas janrining mavjudligini ta'kidlaydi⁸. Ammo S.Ayniy adabiyotshunos A.Mirzoyevga yozgan xatida Hofiz davrigacha fors-tojik adabiyotida muxammas uchramasligini aytib o'tadi⁹.

S.Ayniy, A.Mirzoyev va X.Mirzozoda kabi olimlar muxammasning shakllanish jarayonini XIV asrda yashab o'tgan Xoja Kirmoniy ijodi bilan bog'laydilar¹⁰. S.Imronov va Sh.Rahmonovlar fors-tojik adabiyotida muxammas yozish ilk bor XII asrda So'zani Samarqandiy ijodi bilan boshlangan deya ta'kidlaydilar¹¹. J.Hikmatov adabiyotshunoslar S.Ayniy va A.Mirzoyev ta'kidlagan xulosaga tayanib, fors-tojik adabiyotida muxammas janrining shakllanishi XIV asrda yashab o'tgan Xoja Kirmoniy ijodi bilan boshlangan degan fikrni ilgari suradi¹². D.Hakimov esa o'rta asr olimlarining fikrlarini qo'llaydi va Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asariga tayangan holda muxammaslar XI asrda mavjud bo'lgan degan xulosaga keladi¹³.

Tatar adabiyotshunoslaridan A.Yaxin, M.Bakirov, G.Gilmanov, X.Usmonov, X.Minnegulov, D.Zagidullina, X.Kurbatovlar tadqiqotlarida dastlab arab va fors-tojik poetikasidan, so'ng turkiy adabiyotdan tatar adabiyotiga kirib kelgan g'azal, qasida, ruboiy, masnaviy, qit'a, fard hamda noma she'riy janr sifatida, madhiya, marsiya, munojot, muxammas, musaddas esa bandli she'r shakllari sifatida tadqiq etiladi¹⁴. Bu fikr qator lirik janrlar kabi tatar adabiyotida ham muxammas janri rivoj

⁶ Шарбатов Г.Ш. Арабско-русский учебный словарь. – М.: Русский язык, 1982. – С. 265. Большой арабско-русский словарь. Составитель: Юшманов А.С. – М.: Дом славянской книги, 2010. – С. 315.

⁷ Шайх Ахмад ибн Худайдод Тарозий. Фунун ул-балога. – Тошкент: Хазиана, 1996. – Б. 55.

⁸ Атоуллох Хусайний. Бадойи ус-санойиъ. – Тошкент: Фафур Фулом, 1981. – Б. 73.

⁹ Boldirev A.N. Hofizi Sherozi. Muntaxabot. Dar zeri tahriri S.Ayni// A.H.Болдырев. – Ленинград, 1940. – С. 150.

¹⁰ Хакимов Д. Формирование жанра мухаммас в персидско-таджикской литературе XII – XIX вв. АКД. – Душанбе, 2017. – С. 5.

¹¹ Имронов С. Взгляд на мусамматный мухаммас // Садои Шарк, 1983, № 4. – С. 92; Рахмонов Ш. Мусаммат, его формирование и эволюция. – Душанбе: Дониш, 1987. – С. 172.

¹² Хикматов Дж. Мухлис Бадахшани и его мухаммасы. – Душанбе, 2010. – С. 58. (на тадж. яз.).

¹³ Хакимов Д. Формирование жанра мухаммас в персидско-таджикской литературе XII – XIX вв. Дисс. на соискание ученой степени канд.фил.наук. – Душанбе, 2017. – С. 21.

¹⁴ Qarang: Яхин А. Г., Бакиров М.Х. Фольклор жанрларын система итеп тикшеру тэжрибэсе. Казан.ун-ты нашр., 1979. – 82-197 б.; Яхин А.Г. Система татарского фольклора. – Казань, 1984. – 198 с.; Бакиров М.Х. Закономерности тюркского и татарского стихосложения в свете экспериментальных исследований. Автореф.

topganligini ko'rsatadi. A.Sharipov dissertatsiyasida o'rta asr arab va fors-tojik klassik poetikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'rta asr turkiy adabiyotiga ham ko'chgan, degan fikrni ilgari suradi¹⁵. Ozarbayjon adabiyotida yaratilgan muxammaslarning mavzu doirasini olim N.Mustafayeva asosan 6 ga bo'ladi: 1) ishqiy; 2) vatanparvarlik; 3) ijtimoiy-siyosiy; 6) falsafiy; 7) diniy; 8) satirik mavzudagi muxammaslar¹⁶. Bu esa mazkur janrdagi she'rlarning mavzu doirasi, mazmun-mundariyasi boyib borganligini ko'rsatadi.

Kuzatishlarimiz asosida janrning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin: 1. Muxammasda qo'shiqqa xos lirik kechinmalar ham, dostonga xos epik voqealar tasviri ham berilgan. 2. Xalifat davri arab adabiyotida (VII-VIII asrlar) musammatning shakllanishiga va keyinchalik fors-tojik she'riyatida takomil topishida arab she'riyatining ta'siri kuchli bo'lgan. 3. Fors-tojik adabiyotiga oid tadqiqotlarda muxammas janrining shakllanishi XII-XIV asrlarda yashab o'tgan So'zaniy, Azxariy va Xoja Kirmoniylar ijodi bilan boshlangan degan fikr ilgari suriladi. 4. O'zbek adabiyotida badiiy jihatdan mukammal muxammaslarning paydo bo'lishi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. 5. Muxammas janrdagi asarlar turkiy adabiyotdan tatar adabiyotiga kirib kelgan. 6. Muxammas janrida kechinma va tuyg'ular real hamda erkin ifoda etiladi. 7. Bu janr namunalari dunyoviylik bilan bir qatorda realizm ruhi ham ko'zga tashlanadi. 8. Muxammaslar ko'proq ishqiy mavzularda bitilgan. Bu jihatdan g'azalga yaqin. Shu bilan birga, vatanparvarlik, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy mavzularda, satirik mazmunda yaratilgan janr namunalari ham mavjud. 8.

Bobning *“Xalq og'zaki ijodida muxammas janri genezisi”* faslida muxammasning kelib chiqish asoslari B.M.Jirmunskiy, X.T.Zarifov, A.Hayitmetov, O.Nosirov, O.Safarov, B.To'xliyev, D.Xakimov kabi olimlarning nazariy qarashlari orqali dalillangan. Muxammas genezisi quyidagicha aniqlangan: 1. Xalq qo'shiqlarida muxammas janri xususiyatlari. 2. Xalq erkalamalarida janr belgilari. 3. Xalq dostonlarida muxammas janri sifatlari. Taniqli folklorshunos olim O.Safarov poetik erkalamalarning ham muxammas shaklida uchrashini ta'kidlaydi¹⁷. Bu she'rlar janr tabiati, aruz vazni talablari va g'oyaviy-badiiy mukammalligi jihatdan muxammas talablariga to'liq javob bermasa-da, ularda muxammas unsurlarining shakliy tuzilishi ko'zga tashlanishini ta'kidlash kerak.

дисс. канд. филол. наук. – Казань, 1972. – 75 с.; Бакиров М.Х. Генезис и древнейшие формы общетюркской поэзии. Автореф. дисс. доктора филол. наук. – Казань, 1999. – 96 с.; Бакиров М.Х. Шигърийат бишеге. Гомумтерки поэзиянен, яралуы ьэм иц борынгы формапары. – Казан. Мэгариф, 2001. – Б. 343.; Гильманов Г.Х. Татарская баллада (Истоки и этапы развития). – Казань, 1989. -192 с.; Усманов Х.У. Древние истоки тюркского стиха. – Казань: Казанский университет, 1984. – 148 с.; Усманов Х.У. Тюркский стих в средние века. – Казань: Казанский университет, 1987. – 144 с.; Мицнегулов Х.Й. Газэл. Касыйдэ. Робагый. Кыйсса. Мэрсия. Мэдхия. Фэрд. Нэсыйхэт. Хикмэт. Мэкалэлэр // Эдэбият белеме сузлеге / Тезуче-ред. – А. Г.Эхмэдуллин. – Казань, 1990.; Загидуллина Д.Ф. Формирование и этапы становления теории татарской литературы. Автореф. дисс. доктора филол. наук. – Казань, 2001. – 70 с.; Загидуллина Д.Ф. Эдэбият кануннары. Иэм заман (Татар эдэбият нэзариясенен, барлыкка килуе ьэм усеш баскычлары). – Казан, 2000. – Б. 271; Загидуллина Д.Ф. Метод. Стиль. Жанр. – Казан, 1976. – Б.223. Курбатов Х.Р. Иске татар поэзиясендэ тел, стиль, метрика ьэм строфика. – Казан, 1984. – Б. 164;

¹⁵ Шарипов А. Система стихотворных жанров в древнетюркской и тюрко-татарской литературе VIII-XIV вв. (зарождение, становление и функционирование). Автореф.дисс.док.фил.наук. – Казань, 2001. – С. 7

¹⁶ Mustafayeva N. XX эср азэрбайсан эдэбиуатинда мұхəммəс жанринда yazilmış şeirlərin mövzu dairəsi. Risalə. Елми арашдырмалар журналі. №1.2020 (18). – Баки: Elm və Təhsil, 2020. – S. 151.;

¹⁷ Сафаров О. Болаларни эркаловчи ўзбек халқ кўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 62.

Masalan: *Ta'rif etay bir yor aslin://Man shu kun Ra'noni go'rdim.//Orzu etib oning vaslin, //Man shu kun Ra'noni go'rdim, //Qoshlari qaroni go'rdim. Naqarot: Go'rdim, go'rdim – nani go'rdim?//Qoshlari qaroni go'rdim*¹⁸. Xorazm xalqining sho'x qo'shiqlaridan hisoblangan mazkur she'r 6 banddan iborat bo'lib, unda "Go'rdim, go'rdim – nani go'rdim? Qoshlari qaroni go'rdim" misralari naqarot sifatida keladi. Mazkur qo'shiq barmoq vaznida yozilgan. Qofiyalanish tizimi aynan muxammasga o'xshamaydi. Biroq band tuzilishi, besh misradan iboratligi, band oxirida ikki misraning takrori, keyingi bandlarda dastlabki banddagi fikrlarning rivojlantirilishi hodisasini muxammasga xos belgilar sifatida ta'kidlash mumkin. "Sunbula", "Jonon bo'laman deb" kabi xalq qo'shiqlari, "Alpomish", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Tohir va Zuhra", "Kuntug'mish", "Ravshan", "Intizor", "Xushkeldi", "Yakka Ahmad", "Dalli" dostonlari matnida mavjud beshlik bandlar ham shu aspektida tekshirilgan.

Bobning uchinchi faslida "**Muxammasning yozma adabiyotda shakllanishi**" haqida fikr yuritilgan. Muxammasning shakllanish bosqichlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin: **1. Arab adabiyoti. 2. Fors-tojik adabiyoti. 3. O'zbek adabiyoti.** Ma'lumki, qator lirik janrlarning shakllanishi arab adabiyotiga borib taqaladi. Islomga qadar johiliyat davri ijodkorlarining yuzdan ortiq she'riy asarlari mavjud bo'lgan. Bular, asosan, V asrdan boshlab, VII asrning o'rtalarigacha bo'lgan davr adabiyotini qamrab oladi¹⁹. Bu davr adabiyotida, asosan, qasida janri namunalari yetakchilik qiladi. Umru-l-qays, Labid, Antara, Sobit ibn Abu al-Azdii, Tabbata Sharan Bashar ibn Burd, Farazdaqning qasidalarini "Ayomu-l-arab" to'plamida tilga olingan. Islomiyat davrida yashagan Ibn Qutayba tomonidan yaratilgan "Ash-she'r va-sh-shuaro" (IX asr) kitobida qasidaga tegishli poetik unsurlar bayon qilinib, unda qo'shiqqa xos lirik kechinmalar, dostonga oid epik voqealar tasviri ham berilgan. XII asrda yaratilgan va tazkiraning eng qadimgi namunalari sanalgan Abu Mansur Saolibiyning "Yatimat ud-dahr fi mahosini ahl al-asr" ("Zamona ahlining fazilatlarini haqida yagona durdona") asarida ham Arab, Ajam, Movorounnahr, Xorazm va Xuroson adabiyoti haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi²⁰.

A.Abdusattorov musammat janri shakllarining fors-tojik adabiyotida paydo bo'lishini arab-ispans xalq she'riyati bilan bog'laydi²¹. Olim dastlab arab adabiyotida paydo bo'lgan va yuksak cho'qqiga ko'tarilgan qasida janridan muxammas o'sib chiqqan degan fikrni ilgari suradi. A.Hayitmetov ta'kidlashicha: "Alisher Navoiy ham "Mezon ul-avzon"ida vaznlarini aniqlab chiqqan "turkiy", "aruzvoriy", "muhabbatnoma", "tuyuq", "chinga", "mustazod", "o'lan" kabilar o'zigacha va o'sha davrda xalq orasida qo'llanib kelinayotgan xalq she'riyati janrlari haqida fikr yuritgan²². Yuqorida tilgan olingan janrlar o'zbek she'riyatidagi

¹⁸ Шода-шода марварид. Ўзбек халқ кўшиқлари. (Тўплаб, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Э.Очиллов). – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 29.

¹⁹ Ханна ал-Фахури. История арабской литературы. Перевод с арабского В.В.Атамали, Д.А.Баширова, В.С.Сегалю. – М., 1960. Часть I. – С. 11.

²⁰ www.bukhari.uz

²¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/arabo-ispanskie-predposylki-voznikoveniya-musammata/viewer>

²² Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 16-том. Мезон ул-авзон. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 93-94.

g'azal, tuyuq, ruboiy, murabba', muxammas, mustazod kabi janrlarning aruzdagi namunalarining paydo bo'lishida zamin bo'lib xizmat qilgan.

Turkiy yozma adabiyotda janrlar genezisida Alisher Navoiy asarlari muhim manba hisoblanadi. Shoir "Majolis un-nafois" tazkirasida "Mavloni Muhammad Tabadgoniyni (804 (1401—1402) – 891/1482—83) arab shoiri Ka'ba Ibni Zuxayrning (VII asr) "Qasidai Burda"sini muxammas qilganligini aytib o'tadi. Yana bir o'rinda esa "Shayx Kamoli Turbatiy – ko'p diqqatlik, ta'blik kishi erdi. Hoja Hofiz g'azallaridan ko'p muxammas qilibdur"²³ deb ta'kidlaydi. Shuningdek, Alisher Navoiy "Badoye' ul-bidoya" devoni debochasida taxmislari xususida "ruhafzo muxammaslar"²⁴ deya ma'lumot beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"XV-XIX asrlar o'zbek mumtoz she'riyatida muxammasning badiiy takomili va tasnifi"** tarzida sarlavhalangan va ikki fasldan iborat. Bobning dastlabki faslida **"Muxammaslarning mavzulari"** yoritilgan. O'zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan muxammaslarni quyidagicha davrlashtirish mumkin: 1. XV asr (Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Husayniy – Husayn Boyqaro, G'aribiy – Shohg'arib Mirzo). 2. XVII asr (Mashrab, Turdi). 3. XVIII asr (Ravnaq, Nishotiy, Huvaydo, Andalib, Vafoiy, Maxmur, Mujrim Obid, Mirhasan Sadoiy, Muhammad G'oziy). 4. XIX asr yoxud Milliy uyg'onish davri (Munis, Ogahiy, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Anbar Otin, Dilshodi Barno, Komil Xorazmiy, Feruz, G'urbat, Muhyi, Pisandiy, Dilafgor, Nodim, Rojiy Namangoniy, Rojiy Xorazmiy, Ahmad Tabibiy, Hayrat Kattaqo'rg'oniy, Oraziy, Shavkat, Muntazir, Noqis, Yusuf Saryomiy).

XV-XIX asrlarda yashab ijod qilgan tamomila yangi muxammanavis shoirlarning nomlari va asarlari haqidagi qimmatli ma'lumotlar Po'latjon domla Qayumovning "Tazkirai Qayyumiy" asarida uchraydi²⁵. "Tazkirai Qayyumiy"ning 1-3 jildlarida jami 94 nafar shoirning muxammaslari keltiriladi. Qo'qon, Farg'ona, Xiva, Xorazm, Buxoro, Samarqand adabiy muhitidan yetishib chiqqan Nola, Xon, Nozik²⁶, Qoriy, Ahkar, Tarjimon²⁷, Kotib, Muztag'far, Firoqiy²⁸ kabi o'nlab iste'dodli shoirlar haqida qimmatli ma'lumotlar bilan birga, ijodkorlarning ta'bi xud muxammaslari bilan mashhurligi ta'kidlanib, ulardan namunalar berilgan. Ammo tazkirada nomlari keltirilgan aksariyat shoirlarning muxammaslarida vazn saktalıkları yaqqol ko'zga tashlanib, badiiy va mantiqiy uyg'unlikdan yiroq misralar, poetik talqin, obrazli tafakkur va go'zal tashbehlardan bebahra satrlar, janrning shakliy va mazmuniy talablariga javob berolmaydigan namunalar ham uchraydi.

O'rganishlarimiz o'zbek adabiyotida musammat zanjirida eng ko'p murojaat qilingan she'rlardan biri muxammas ekanligini ko'rsatdi. Muxammasnavislikda Xorazm adabiy muhiti vakillari yetakchilik qiladi. Xiva adabiy muhitida kamol

²³ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. 13-жилд. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 35.

²⁴ Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 20.

²⁵ Қайюмов П. (Пўлотжон Домулла Қайюмов) Тазкирай Қайюмий. I, II, III т. Масъул муҳаррир: Л.Қайюмов. Нашрга тайёрловчи: А.Қайюмов. – Тошкент: ЎзРФА Қўлёзмалар институти, 1998. – 720 б.

²⁶ O'sha manba, I jild. – B. 133-134, 169-170, 170-174.

²⁷ O'sha manba, II jild. – B. 314, 451-452, 468.

²⁸ O'sha manba, III jild. – B. 550-552, 587-588, 644-648.

topgan Ogahiy va Ahmad Tabibiylarning 100 dan ortiq mazkur janrdagi ijod namunalari buni yorqin dalillaydi. Tadqiqotchi Sh.Amonovning aniqlashicha, o‘zbek adabiyoti tarixida hech bir shoir XIX asr oxiri XX asr boshlari Xiva adabiy muhiti vakili Tabibiy singari 80 dan ortiq ijodkor g‘azallariga muxammas bog‘lamagan. Uning turkiy tilda yaratilgan muxammaslari soni 114 tani tashkil qilib, shundan taxmislar 85 nafar shoir g‘azallariga bog‘langandir. Yosh olim shoirning forsiy tilidagi devonida ham 50 dan ortiq ijodkorlarga taxmis qilingan she‘rlari kiritilganligi va Tabibiy ijodida muxammas alohida tadqiqot mavzusi bo‘lishini ta’kidlaydi²⁹.

Muxammasnavislikning rivojlangan davri XIX asrga to‘g‘ri keladi:

(1-jadval)

№	Muxammas yaratgan shoir	Ta’bi xud muxammaslar	Taxmislar	Jami
1	Hofiz Xorazmiy (XV asr)	1	0	1
2	Alisher Navoiy (XV asr)	0	10	10
3	Husayniy-Husayn Boyqaro (XV asr)	0	3	3
4	Shohg‘arib Mirzo-G‘aribiy (XV asr)	0	5	5
5	Mashrab (XVII asr)	30	0	30
6	Turdi (XVII asr)	4	1	5
7	Huvaydo (XVIII asr)	1	2	3
8	Nishotiy (XVIII asr)	1	13	14
9	Mirhasan Sadoiy (XVIII asr)	8	1	9
10	Muhammad G‘oziy (XVIII asr)	9	2	11
11	Miriy (XIX asr)	6	15	21
12	Muhammad Rahimxon Feruz (XIX asr)	3	3	6
13	Amiriy (Amir Umarxon) (XIX asr)	8	49	57
14	Mohlaroyim Nodira (XIX asr)	5	1	6
15	Jahon Otin Uvaysiy (XIX asr)	4	18	22
16	Dilshodi Barno (XIX asr)	12	1	13
17	Anbar Otin (XIX asr)	4	1	5
18	Munis (XIX asr)	0	9	9
19	Komil Xorazmiy (XIX asr)	5	15	20
20	Ogahiy (XIX asr)	0	90	90
21	Haziniy (XIX asr)	22	0	22
22	Muqimiy (XIX asr)	35	30	65
23	Zavqiy (XIX asr)	19	6	25
24	Furqat (XIX asr)	7	5	12
25	Nodim Namangoniy (XIX asr)	6	7	13
26	Rojiy Xorazmiy (XIX asr)	3	31	34
27	Ahmad Tabibiy (XIX asr)	29	85	114
JAMI		242	403	645

XV-XIX asrlarda yaratilgan muxammaslar, asosan, quyidagi mavzularda yozilganligi kuzatiladi: 1. Ishqiy. 2. Diniy-ma’rifiy. 3. Ijtimoiy-falsafiy. XV asr adabiyotida yaratilgan muxammaslarda **ishq mavzusining** yuksak badiiy ifodasi Alisher Navoiy ijodida yorqin nazarga tashlanadi: *Ishq o‘tidin jismi zori notavonim o‘rtading, //Qaysi jismi zorkim, ruh-u ravonim o‘rtading, //Parda orazdin olib jon-*

²⁹ Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo‘lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. Filol. fan. dok. (DSc) diss. – Toshkent, 2023. – B. 142-143.

u jahonim o'rtading, //Vahki, o'tlug' chehra ochib, xonumonim o'rtading, //Otashin la'lingdin aytib nukta jonim o'rtading³⁰. Bu satrlarda oshiqning ishqdan ozorlangan ruhiy holati aks etgan. Shoir muxammasnavislik an'anasiga muvofiq ravishda uning qofiyalanish tartibi (aaaaa – notavon-ravon-jahon-xonumon-jon)ni, mavzuni (muxammaslar ham g'azallar kabi dastlab ko'proq ishqiy mavzuda bitilgan), kompozitsiyani saqlagan. **Diniy-ma'rifiy mavzudagi** mukammal muxammas namunalari Xojanazar Huvaydo ijodida nazarga tashlanadi. Shoir muxammaslarida Qur'oni karimdan oyatlar, hadislar, payg'ambarimiz va chahoryorlarning nomlarini keltirish orqali diniy-ma'rifiy mazmuni misralar mag'ziga singdiradi: *Aytayin alqobingiz, ey sadr ayvoni vafo, //Barcha ashobi nabiyyin rutbangiz erdi a'lo, //Din-u millatni charog'i erdingiz, najmi Xudo, //Beadad mandin duo, ey choryori bosafu, //Sizga Abu Bakru Umar, Usmon, Aliyi Murtazo*³¹. Bunda shoir Payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V) chahoryor-u bosafolari Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali ta'rif etilgan. "Alqob" arabchada laqablar, nomlar degani. Shoir chahoryorlarni vafo ayvonining ulug' nasabli kishilariga qiyos etadi.

XVII asr o'zbek adabiyoti tarixida ishqiy, diniy-ma'rifiy muxammaslar bilan birga **ijtimoiy mavzudagi** she'rlar ham uchraydi. Zamona amaldorlarini o'tkir hajv ostiga olingan muxammaslar adabiyot tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Turdi Farog'iyning Buxoro xoni Subxonqulixon va uning amir-amaldorlari haqida 1691-yilda yozilgan muxammasida ijtimoiy muhitdan norozilik kayfiyati kuchli ifodalangan: *Joyi osoyish emas hech kima bu ko'hna ravoq, //Yog'durur boshimiza sangi jafu, gardi firoq, //Yo'qolib rasmi vafo, bo'ldi hama bosh-u oyoq, //Mulkdin adl-u karam ketti, kelib kin-u nifoq, //Yaxshiliq qilma tama', zulm ila do'ldi ofoq...*³²

Bobning keyingi fasli "**Muxammaslarning strukturasi va xarakteriga ko'ra tasnifi**" deb ataladi. Unda ta'bi xud muxammaslar va taxmisarga xos poetik xususiyatlar yoritilgan. Binobarin, muxammas haqidagi aksariyat ta'riflarda uning 2 turi mavjudligi ko'rsatiladi: 1. *Mustaqil (ta'bi xud) muxammaslar* tom ma'nodagi mukammal asarlar bo'lib, ular g'azal asosida yaratilmasligi, yoki taxmis, tazminlardek o'zga she'rdan jumla, bayt kiritilmasligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha bu muxammaslarga: 1. Har bir bandi besh misradan iborat she'r shakli sifatida qaraladi. 2. Mustaqil muxammaslarda bandlarning oxirida misra tarje'i uchraydi. Bayt tarje'i kamroq. 3. G'azal asosida yaratilgan muxammaslardagidek, birinchi banddagi oxirgi ikki misra radifi bir xil bo'lmaydi. 4. Aksariyat hollarda taxallus oxirgi bandning yuqori qismlarida beriladi, g'azal maq'tasidagidek so'nggi baytning keyingi ikki qismidan birida berilmaydi. Jumladan, Mohlaroyim Nodira devonida jami 8 ta muxammas bo'lib, ulardan 1 tasi Alisher Navoiy g'azaliga bog'langan taxmis, qolgan 7 tasi esa ta'bi xud muxammaslardir³³. Shoir devonidagi barcha muxammaslar ishqiy mavzuda bo'lib, ular, asosan, Nodiraning ustoz va yori Amiri taxallusi bilan she'rlar bitgan Qo'qon xoni Umarxonga bag'ishlangan va hasbu hol yo'nalishida yozilgan: *Alfiroq, ahboblar, ey ahli davron, alfiroq, //Kim qilur azmi safar sulton Umarxon, alfiroq, //Qoldi hajridin*

³⁰ Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 3-том. Фаройиб ус-сифар. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 498.

³¹ Хувайдо Хожаназар. Девон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 254.

³² <https://ziyouz.uz/uzbek-sheriyati/uzbek-mumtoz-sheriyati/turdi-farogiy/>

³³ Нодира. Девон. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. – Б. 308-327.

ko'ngulda dog'i pinhon, alfiroq, // Qanda bordi bilmadim ul shahi davron, alfiroq, // O'tti davroni, ko'ngulda qoldi armon, alfiroq (325-b.). Komil Xorazmiy devonida 20 ta muxammas mavjud³⁴. Shoirning 7 banddan iborat quyidagi muxammasi matni asosida xalqimiz orasida mashhur “Lazgi” taronasi ijro etiladi: *Qaysi falak burjining mehri pur anvorisen, // Qaysi sadaf durjining gavhari shahvorisen? // Qaysi Xo'tan ohusi, nofai totorisen, // Qaysi chamanzorning lolavu gulnorisen? // So'yla mango ey sanam, kimni sevar yorisan? (193-b.).* Unda yor quyoshga, gavharga, durga, chamanzorning gul-u lolalariga o'xshatilgan. “Xo'tan ohusi” orqali talmeh san'ati yuzaga chiqqan. Bandda “anvorisen-shahvorisen-totorisen-gulnorisen-yorisan” so'zlari “i” unlisi orqali bog'lanib, mutlaqi mujarrad qofiyadoshlikni tashkil etgan. Bandlar misra tarje'i asosida shakllangan.

2. “Taxmis” so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib, “beshtalik qilish”, “beshtaga yetkazish” degan ma'noni bildiradi. Taxmis yozuvchi o'ziga yoqqan shoir ijodiy namunasini tanlaydi va shu asosda uni beshlikka aylantirib, misralarni o'z poetik tafakkuri bilan to'ldiradi. “Salaflar g'azaliga bog'langan uch misra g'azal baytlariga ham mazmun, ham vazn, ham san'at jihatidan shu qadar uyg'unlashmog'i zarurki, har besh misra go'yo bir shoir qalamidan chiqqandek tasavvur hosil qilishi kerak³⁵. Ko'pincha, taxmis istilohi bilan birgalikda tazminga ham duch kelamiz. Tazmin g'azal asosida yaratiladigan musammata turidir. Fors-tojik adabiyotida Husayn Voiz Koshifiy o'zining “Badoe' ul-afkor” asarida tazminning bir qancha turlari haqida fikr yuritib, tazminning turlari qatorida taxmis va tasdisni ham izohlab o'tadi, misollar keltiradi³⁶. Hoji Nosir tazmin haqida yozadi: “Tazmin shoir o'z fikrini tasdiqlash, rivojlantirish maqsadida qofiya, radif, vaznda mos keltirish sharti bilan o'zga bir she'rdan parcha keltiradi”³⁷. Atoullah Husayniy ham o'z asarida tazmin haqida quyidagi ma'lumotlarni berib o'tadi: “Tazmin o'zgalarning she'ridan olinishi shart emastur. Demak, tarifta o'zganing she'rin demastan, o'zga she'rni deyilsa, yaxshiroq bo'lur edi. Ammo mazkur ta'ruf ul jihattin to'g'ridurkim, shuarovu fusahoda o'z she'rin tazmin etish odati bag'oyat ozdur, aning uchun ham ta'rifta ani e'tibor qilmabturlar”³⁸, – deya fikr bildiradi. Demak, tazmin faqat o'zganing she'ridan parcha kiritish, iqtibos olish emas, balki o'z she'ridan olinishi ham mumkin. O'zbek adabiyotida esa o'z g'azali asosida tazmin yaratish adabiy hodisasi Furqat ijodida uchraydi. Shoir devoni ko'zdan kechirilganda “Adashganman” radifli 7 baytli g'azali³⁹ asosida 2 tazmin yaratilganligi aniqlandi.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonida 10 ta taxmisdan 3 tasi Lutfiy g'azallari, qolgan 7 tasi esa shoirning o'z g'azallari asosida yaratilgan. Ulug' shoirning o'z g'azallariga taxmis bog'lash hodisasini D.Yusupova quyidagicha izohlaydi: “Alisher Navoiy tanlagan g'azalda buyuk shoirning dard-u dunyosi, albatta, aks etishi shart edi. Ehtimol, Alisher Navoiy muayyan bir ijodiy salohiyatga yetishgandan so'ng turkiy adabiyotda mana shunday she'r namunasiga duch

³⁴ Комил. Девон. – Тошкент: Фафур Фулом, 1975. – Б. 175-208.

³⁵ Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Тошкент: Фафур Фулом, 2015. – Б. 175.

³⁶ Кашифи Хусайн Ваиз. Бадоеъ-ул-афкор. – Душанбе: Хумо, 2006. – С. 226.

³⁷ Мусульмонкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика X-XV вв. – М.: Наука, 1989. – С. 69.

³⁸ Хусайний Атоулло Махмуд. Бадоеъ ус-саноеъ. – Тошкент: Фафур Фулом, 1981. – Б. 246.

³⁹ Фурқат. Танланган асарлар. – Тошкент: Фафур Фулом, 1975. – Б. 128.

kelmagandir, boshqa shoirlarning baytlarida o‘z olamining aks-sadosini his etmagandir?! Bu esa badiiy didi yuksak bo‘lgan Alisher Navoiyning o‘z g‘azallariga taxmis bog‘lashiga olib kelgan bo‘lishi mumkin”⁴⁰. Alisher Navoiydan so‘ng taxmis yaratish an‘ana sifatida shakllangan bo‘lsa ham, XIX asrga kelib muxammas va taxmis yozish keng ko‘lamda rivojlandi. Bu davr adabiyotida Lutfiy, Hofiz, Navoiy, Jomiy, Mashrab, Bedil, Fuzuliy kabi yirik so‘z san‘atkorlarining g‘azallariga taxmis bog‘lash an‘ana tusini oldi. Yuqoridagi tahlillar asosida she‘riyatimizda yaratilgan muxammaslarni tuzilishi, mazmuniga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin:

(2-jadval)

Tab‘i xud (mustaqil) muxammas	Taxmis	Tazmin
Muxammas janrining bir turi.	Muxammas janrining bir turi	She‘riy san‘atning bir turi
Tom ma‘nodagi mustaqil nazmiy asar. G‘azal asosida yaratilmaydi	Faqat nazmda uchraydi.	Nazm va nasrda uchraydi.
“O‘z ta‘bi, o‘ziniki” degan ma‘noni bildiradi	“Beshtalik qilish”, “beshtaga yetkazish” ma‘nolarini bildiradi.	“Bir nimani bir nimaning orasiga qo‘ymoq”, “o‘z ichiga olish” degan ma‘noni bildiradi.
Chegara bilmaydi. 33 bandli muxammas uchraydi.	Ma‘lum bir chegaraga ega bo‘ladi.	Chegara doirasi kengroq
Faqat o‘zining iste‘dodi asosida mustaqil har bandi 5 misradan iborat she‘r yaratadi.	Shoirlar tomonidan yaratilgan g‘azal va ba‘zan shoirning o‘z g‘azali asosida bitiladi. Shoir taxmis qilinayotgan she‘r mavzusi, g‘oyaviy mazmuni davom ettirilishi, vazn, qofiya, radifi va boshqa jihatlariga mos bo‘lishi talab etiladi.	O‘zga shoirning misra yoki baytini she‘rda aynan keltirish. Bir she‘r o‘zga bir she‘rga qisman yoki to‘liq iqtibos (ba‘zan juz‘iy o‘zgarishlar bilan) qilinadi. Bir she‘r butunlay boshqa she‘rga singdirilib, yangi bir butunlik hosil qilinadi.
Taxallus oxirgi bandning yuqori qismlarida beriladi.	O‘zga shoir g‘azaliga taxmis bog‘langanda muxammasning so‘nggi bandida g‘azal muallifi va uni beshlantirayotgan shoir taxalluslari keltiriladi.	O‘zga shoirning misra yoki baytini she‘rda aynan keltirilganda muxammasning so‘nggi bandida g‘azal muallifining taxallusi keltiriladi.
Oxirgi misra takrorlanadi. Bayt yoki misra tarje‘i bo‘ladi. Ba‘zan oxirgi misra qofiyani saqlaydi, ammo aynan takrorlanmasligi mumkin. “Bir ko‘ngil gulshanining durdonasi” (ta‘rif bizniki – G.Boltayeva)	Taxmis bog‘lanayotgan g‘azalning baytlari har bandning oxirida o‘zgarishsiz, ba‘zan juz‘iy o‘zgarishlar bilan takrorlanadi. “Ikki ko‘ngil gulshanidan suv ichadi” (G.Xalliyeva)	Shaklda erkinlik kuzatiladi. Tazmin taqliddan iborat bo‘lmasligi, shoirning tazminga ijodiy yondashishi talab etiladi. Iqtibos qilingan g‘azal mavzusi rivojlantiriladi va badiiy barkamollikka e‘tibor qaratiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Muxammas strukturasi sinkretizm hodisasi va janrning poetik xususiyatlari”** tarzida sarlavhalangan va uch fasldan iborat. Bobning dastlabki **“Sinkretizm va janr strukturasi o‘zgarishlar”** faslida muxammaslarda uchraydigan janr sinkretizmi hodisasi yoritilgan. Aristotel **“Poetika”** asarida janrlarning sinkretizatsiyasini umumiy darajada ochib beradi⁴¹.

⁴⁰ Yusupova D. Alisher Navoiy taxmisilari. <http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumtoz/1267-maqola.html>. 21.08.19.

⁴¹ Аристотель. Поэтика. Сочинения. В 4 т. Т. 4. – М.: Мысль, 1984. – С. 253.

Gegelning estetik qarashlarida ham tur va janrlar o'rtasidagi sinkretlik hodisasiga munosabat bildirilgan⁴². V.G.Belinskiy janrning rivojlanib borishini, adabiy turlarning o'zaro o'tkazuvchanlik xususiyatiga egaligini qayd etadi⁴³. D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy yozadi: "Ijodiy jarayon hamma narsani o'zgartiradi. Shoirning obrazlariga munosabati epik va dramatik bo'lishi mumkin. Ko'pincha ikkala shakl birlashadi. Lekin janrning tashqi ko'rinishida bu ifoda aks etmaydi"⁴⁴. She'riyatda sinkretizm masalasini tadqiq etgan V.M.Jirmunskiy: "Biz she'riy janrlarning yangi sinkretizmini qadimgi davrdagidan farqli asosda kuzatmoqdamiz. Adabiy tur va janrlarning turli-tumanligi, ulardagi sinkretizm hodisasi kishilarning g'oyaviy-ma'rifiy ehtiyojlari, talablaridan kelib chiqib, shakl va mazmunning bir-biriga o'tishi, rivojlanib, o'zgacha ko'rinish, rang-barang ahamiyat kasb etishi bilan bog'liq"⁴⁵ligini qayd etadi. Y.N.Tinyanov esa sinkretizmni "janr belgilarining o'zi rivojlanayotganligi" bilan izohlaydi⁴⁶. Bundan tashqari I.Kirillova, D.Krotova, A.Mishkina, G.Ilina, Y.Kovalenkolarining nazariy qarashlarida ham epos, lirika, dramaga oid sinkretlashuv jarayonlari haqida fikr bildirilgan⁴⁷.

O'zbek she'riyatidagi lirik janrlar taraqqiyotida sinkretizm hodisasi muhim o'rin tutadi. Bu haqda Sh.Rahmonova Habibiy, Chustiy, Sobir Abdulla ijodida muxammas janri takomil topib, muxammas-qasida, muxammas-marsiya kabi poetik shakllar rivojlantirilganligi, muxammas-mustazodning yangicha ko'rinishlari vujudga kelganligini ta'kidlaydi⁴⁸.

O'zbek adabiyotida muxammas-muvashshahlar ham uchraydi. N.Muxitdinova⁴⁹, F.To'xtamuratovlarning⁵⁰ tadqiqotlarida Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodida bu tur muxammaslarning mavjudligi aniqlangan. N.Muxitdinovaga ko'ra, XVIII asr ikkinchi yarmi XIX asr boshlari o'zbek adabiyotining ma'rifatparvar shoiri Mirhasan Sadoiy she'riyatida farzandiga bag'ishlangan 1 ta (Mansur ismi kelib chiqadi – N.Muxitdinova), Husaynquli Muhsiniyning esa Solihxon ismli kishiga bag'ishlangan muxammas-muvashshahlari bor.

Qasida, sayohatnomaning o'ziga xos janriy xususiyatlari, marsiya, munojot, madhiya, hajviya, firoqnoma, salomnoma yo'nalishidagi asarlarning qorishiq belgilari XIX-XX asrda yashab ijod qilgan shoirlar ijodida yorqin nazarga

⁴² file:///C:/Users/GLHF/Downloads/sinkretizm-v-zapadnoy-filosofii-gegel-i-plotin.pdf

⁴³ Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. Т. 5. – Москва, 1953. – С. 62.

⁴⁴ Овсянко-Куликовский Д.Н. Теория поэзии и прозы (теория словесности). Изд. 6-е. – М.: 2010. – С. 18.

⁴⁵ Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – С. 136.

⁴⁶ Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. – М.: Наука, 1977. – С. 275.

⁴⁷ Кириллова И. Внутрижанровый синтез в чувашской литературе. www.gramota.net/materials/2/2015/11-3/28.html; Кротова Д. Синтез искусств в русской литературе конца XIX – первой трети XX века: А.Белый, З.Н.Гиппиус, А.С.Грин, М.М.Зощенко. Дисс.на соискание уч.степени кан.фил.наук. – Москва, 2013. – 168 с.; Мышкина А. Ф., Ильина Г. Г. Модернистские тенденции в чувашской литературе начала XX века // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2015. № 8 (50): в 3-х ч. Ч. 2. – С. 133-136.; Коваленко Ю.В. Многомерность жанрового синкретизма художественной литературы // Гносеология поэтики: художественная семантика и жанровый синкретизм. Ростов н/Д, 2007. Вып. 7. – С. 72-77.;

⁴⁸Рахмонова Ш. XX аср иккинчи ярми ўзбек шеърятда арузинг поэтик шакл ва мазмун такомилидаги ўрни. Фил.фан.б. фал.док. (PhD) илмий даражасини олиш учун дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 75-77.

⁴⁹ Мухитдинова Н. XVIII-XIX асрлар биринчи ярми ўзбек шеърятда салафлар аъналарининг поэтик такомили (Муҳаммад Ғозий ва Мирҳасан Садоий ижоди мисолида). Филол.фанлари докт.дисс. – Самарқанд, 2021. – 245 б.

⁵⁰ То'xtamuratov F. Muhsiniy adabiy merosi: manbalari, matn tarixi va tahriri. Filol.fanlari b.fals.dokt. (PhD) diss.avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 57 б.

tashlanadi. Mohlaroyim Nodiraning “Necha kun bo‘ldiki aql-u hushdin begonaman” deb boshlanuvchi marsiya-muxammasi hamda “Hamd-u sano xudog‘a haqdur aning liqosi” va “Saltanat bahrida paydo bo‘ldi yakto gavhariy” misralari bilan boshlanuvchi 2 qasida-muxammasi mavjud. She’rlarda marsiya va qasidaning xususiyatlari yaqqol aks etgan. Qayd etganimiz marsiya-muxammas 8 band, 40 misradan iborat bo‘lib, quyidagi satrlar bilan boshlanadi: *Necha kun bo‘ldiki aql-u hushdin begonaman, //Shohi davron motamida bexud-u mastonaman, //Xalqi olam ichra bekaslik bila afsonaman, //Olam ahli shod, men hasrat o‘tida yonaman, //Dahr aro mahrumi diydori shahi Farg‘onaman*⁵¹. Muxammas Amir Umarxon vafotidan bir necha kundan o‘tgandan so‘ng yozilgan bo‘lib, unda suyukli yoridan ayrilgan Nodiraning alamli faryodi aks etadi. Marsiyaga xos bo‘lgan sifatlardan biri – unda vafot etgan kishining fazilatlarini bayon qilinib, faryod chekish, vafoti munosabati bilan unga achinishdir. Yusuf Saryomiyning 9 banddan iborat shakl va mazmun jihatidan muxammas janrida bitilgan munojoti ham shoirning yuksak e‘tiqodli, Haqni sevgan chin musulmon maqomida ekanligidan dalolat beradi. Muxammas janrining sinkretik belgilari namoyon bo‘lgan asarlarga G‘urbatning Muqimiy an‘analari asosida muxammas shaklida yozilgan “Sayohatnoma”sini kiritish mumkin. Agar Muqimiy sayohatnomasida murabba‘ning qofiyalanish shaklini asos qilib olgan bo‘lsa, G‘urbat esa muxammas shaklini qo‘llaydi. Sayohatnoma-muxammasda shoirning Qo‘qon, Namangan, Isfahon bo‘ylab qilgan sayohatlari, shu sayohatlardan tug‘ilgan ko‘ngil kechinmalari, rangin tuyg‘ulari, ijtimoiy hayotga munosabat kabilar o‘z aksini topgan. Muxammas matnida XIX asr adabiyotiga xos bo‘lgan, ko‘plab ijodkorlarning asarlarida uchraydigan holat – ruscha so‘zlarning faol qo‘llanganligini ham kuzatish mumkin.

Bobning ikkinchi fasli “**Muxammaslarning qofiya va vazn xususiyatlari**” deb nomlangan. O‘zbek mumtoz she‘riyatida muxammaslar vazniy o‘ziga xosliklarga va muayyan qofiya tizimiga ega. Jumladan, Hofiz Xorazmiy ijodidagi janrning dastlabki namunasi ko‘zdan kechirilganda, quyidagi manzarani kuzatish mumkin: *Eykim, ko‘runur la‘li labing shahd ila shakkar, //So‘z birla labi la‘ling erur qandi mukarrar, //Santak sa/namo yo‘qtu/rur ruhi musavvar, //Ko‘ngul olg‘uchi qadi chu sihiy sarvu sanavbar //Kim, bo‘lsa /sachi sunbu/lu yuzi gu/li ahmar*⁵². Paradigmasi: - - v/ v - - -/ v - - - / v - -. Afoyili: maf-uv-lu/ ma-fo-iy-lun/ ma-fo-iy-lun/ fo-i-lun. Bu muxammas hazaji musammani axrabi mahzuf vaznida yozilgan. Qofiyadagi tirgak harf raviy bo‘lib, u “tub so‘zlarda o‘zak oxirida, yasama so‘zlarda esa negiz so‘ngida keluvchi cho‘ziq unli yoxud undosh harfdir”⁵³. Tahlil etilayotgan banddagi “shakkar”, “mukarrar”, “musavvar”, “sanavbar”, “ahmar” qofiyadosh so‘zlar raviy “r” undosh tovushi bilan yakun topgan, shuning uchun muqayyad qofiya turiga kiradi. Kuzatishlarimiz aruzning hazaj va ramal bahrlari muxammasnavislikda faol istifoda etilganligini ko‘rsatadi. Muxammaslarning vazn xususiyatlarini jadvalda quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

⁵¹ Нодира. Девон. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. – Б. 323.

⁵² Хофиз Хоразмий. Девон. II китоб. – Тошкент, 1981. – Б. 258.

⁵³ Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малохати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 196.

№	Muxammas muallifi	Muxammas bandi	и	Vazni
1	Xorazmiy	Santak sa/namo yo'qtu/rur ruhi musavvar, Kim, bo'lsa /sachi sunbu/lu yuzi gu/li ahmar.		- - V/ V - - -/ V - - - / V - - Maf- uv-lu/ ma-fo-iy-lun/ma-fo-iy-lun/ fo-i-lun Hazaji musammani axrabi mahzuf
2	Navoiy	Jilva qildi/dahr aro ko'p/ husni bexam/to yigit, Gul kebi no/zik badanlik, /sarvdek ra'no yigit.	-	- V - - / - V - - / - V - - / - V - / Fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lun Ramali musammani mahzuf
3	Ogahiy	Bizga tarah/hum aylang, ey/dilbari gul'uzorimiz, Ishqingiz o'ti sar-basar /yoqti tani / nazorimiz.		- V V - / V - V - / - V V - / V - V - Muftailun/ mafoilun/ muftailun/ mafoilun/ Razaji musammani matviyi maxbun
4	Komil Xorazmiy	Ko'ngul ko'rgoch/ yuzungni/ mayli gulzori eram qilmas, Ne gulzori /eram yodi, / guli firdav/s(i) ham qilmas.		V - - - / V - - - / V - - - / V - - - Mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun Hazaji musammani solim
5	Muqimiy	Marhamat ag'/yora, jono,/manga istig'/no nechuk, Kechti g'am kun/jida holing, / demading, tan/ho nechuk?		- V - - / - V - - / - V - - / - V - Fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lun Ramali musammani mahzuf
6	Zavqiy	Fursat g'a/nimat, ahhob,/ millatg'a/ ko'z ochaylik, Umr o'tdi/ zulmat ichra/ g'aflatga ko'z ochaylik.		- - V / - V - - / - - V / - V - - Maf'ulu / foilotun/ maf'ulu/ foilotun Muzoreyi musammani axrab
7	Hamza	Jonona/ gul yuzingdin /ruxsorin/giz chiroylik, Abro' ka/mon qoshingdin /diydorin/giz chiroylik,		- - V / - V - - / - - V / - V - - Maf'ulu / foilotun/ maf'ulu / foilotun Muzoreyi musammani axrab

Bobning uchinchi fasli **“Muxammaslar badiiyati”** tarzida sarlavhalangan. Bir hudud va bir davrga mansub shoirlar ijodida o'zaro mushtaraklik, kayfiyatlarida ruhiy yaqinlik, borliq va inson haqidagi qarashlarida yakdillikni ko'p o'rinlarda kuzatish mumkin. Muqimiyning Furqat ijodiga mansub “Ko'zlaring”⁵⁴ radifli g'azaliga yozilgan taxmisi e'tiborli: *Gar emas, ey nozparvar, kofiriston ko'zlaring, // Nega ikki marduming badmast-u maston ko'zlaring, // Aylagay xunrezliqqa harso' javlon ko'zlaring // To'kkali jallod erur ishq ahlidin qon ko'zlaring // Lablaring jonbaxsh-u ammo ofatijon ko'zlaring*⁵⁵. Shoir yorga nozparvar deya murojaat qiladi – istiorani qo'llaydi. Ko'zlar kofirga o'xshatiladi. Bu tashbeh adabiyotimiz tarixida an'ana sifatida bor edi. Ammo Muqimiy o'xshatish miqyosini bir qadar kengaytirdi. Ko'zni “kofiriston” ya'ni kofirlar o'lkasiga qiyoslaydi. Mashrabning ishq ilohiyga bag'ishlangan “Kovloma” radifli g'azaliga Furqatning taxmis bog'lagani ma'lum. Bu g'azali 9 baytli bo'lib, ramali

⁵⁴ Фурқат. Танланган асарлар. – Тошкент: Фафур Фулом, 1975. – Б. 53.

⁵⁵ Муқимий. Асарлар. 2 томлик. I том. Лирика. – Тошкент, 1960. – Б. 262.

musammani mahzufda yozilgan (foilotun foilotun foilotun foilun)⁵⁶. Ammo muxammas yetti bandli, Furqat gʻazalning ikki baytini (5-6-baytlar) tushirib qoldirgan. Sheʼrda, asosan, ijtimoiy-falsafiy va tasavvufiy mazmun aks etgan. Asarning bosh gʻoyasi ishq majozidan yuksalgan Allohga boʻlgan ishqdir: *Oshiqi dildodadurman, dilbarimni kavlama, // Axgar oʻldi gʻam oʻtida paykarimni kavlama, // Sayr qildim bahr-u bar xushki tarimni kavlama, // Ey sabo, gʻambodadurman, bistarimni kavlama, // Chun shafaq oludaman, xokistorimni kavlama!*⁵⁷ Ikki shoir qalamiga mansub ushbu baytlar bir oʻtli qalb egasining nolasiday jaranglaydi. Bu ikki ijodkorning qalban va ruhan oʻzaro yaqinligiga dalildir. Mashrab va Furqat boshqa-boshqa davrlarning ijodkori boʻlsa-da, oralarida bir yarim asrdan ziyod vaqt masofasi tursa-da, ularning lirik qahramoni dardi ishqda yakdil, kuygan koʻngil nolalarida hamohang.

Dissertatsiyaning toʻrtinchi bobi **“Yangi oʻzbek sheʼriyatida muxammas janri transformatsiyasi”** deb ataladi. Bobning ilk fasli **“Jadid sheʼriyatida muxammasnavislik anʼanasi”** tarzida nomlangan. Yangi oʻzbek sheʼriyatida muxammas janrining ifoda koʻlami kengaydi va “olamni obrazli mushohada etish, hayrat va ehtiros ifodasi”⁵⁸ sifatida adabiy izdoshlik va anʼana tarzida keng rivoj topdi. Yangi oʻzbek adabiyotida yaratilgan muxammaslarni quyidagicha davrlashtirish mumkin: 1. *Jadidchilik davri* (1905-1930-yillar) muxammasnavisligi (Kamiy, Xislat, Miskin, Hamza, Sidqiy Xondayliqiy, Sidqiy Ajziy, Tavallo, Ibrat). 2. *Sobiq shoʻro davri* (1930-1990-yillar) muxammasnavisligi (Habibiy, Chustiy, Charxiy, Sobir Abdulla, Gʻafur Gʻulom, Vosit Saʼdulla, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Omon Matjon, Mirzo Kenjabek, Tohir Qahhor). 3. *Istiqlol davri* (1991-h.v.) muxammasnavisligi (Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Omon Matjon, Mirzo Kenjabek, Tohir Qahhor, Matnazar Abdulhakim, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Farid Usmon, Ismoil Mahmud, Safo Ochil, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Oshiq Erkin, Xosiyat Bobomurodova, Miraziz Aʼzam).

Jadid adabiyoti vakillari ijodida ishqiy, diniy-maʼrifiy va ijtimoiy mavzular hamda didaktik, hajviy yoʻnalishdagi taxmislarda mumtoz adabiyot zaminidan maʼnaviy oziqlanish koʻzga tashlanadi. D.Quronov oʻzbek sheʼriyatida poetik yangilanish jarayonini Hamza ijodi bilan bogʻlab, shoirni mumtoz sheʼriyatimizning oxirgi va yangi oʻzbek sheʼriyatining ilk shoiri sifatida taʼriflaydi⁵⁹. Hamza devonida 17 ta muxammas mavjud⁶⁰. Ulardan 15 tasi mustaqil muxammaslar boʻlib, 2 tasi Haziniy va Avloniy gʻazali asosida yaratilgan taxmislardir. Hamzaning anʼanaviy mavzular badiiy talqin etilgan mustaqil muxammaslari poetik mahorat bobida mumtoz shoirlarga boʻylasha oladi. Sidqiy Xondayliqiy Muqimiy va Zavqiy kabi shoirlarga ergashib, hajviy sheʼrlar ham yozdi. Shoirning Xislat gʻazaliga yozgan “Kavshim” radifli taxmisi, “Dar hajvi toy”, “Bedana ishq” nomli taʼbi xud muxammasi shular jumlasidandir. Bu

⁵⁶ Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним қайдасан. – Тошкент: Фафур Фулом, 1990. – Б. 15.

⁵⁷ Zokirjon Furqat. Ishqingda kuyib jono... – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 105.

⁵⁸ Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Тошкент: Фафур Фулом, 2015. – Б. 233.

⁵⁹ <https://quronov.uz/хамзанинг-поэтик-изланишлари-хақида/>

⁶⁰ Хамза Хаким-заде Ниязи. Избранные произведения. – Ленинград: Советский писатель, 1970.

muxammaslar orqali shoir jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, kishilarning yashash tarzini satirik ruhda aks ettirgan. O‘z davrida “Ilmsiz kishi asossiz devor. Asossiz devor g‘oyatda bee’tibor bo‘lur. Ilm o‘qung, o‘qutung, axloqi funun zamonaga darkorlik ilmlar zarur”⁶¹, – deya ta’kidlagan Ibrat “Tarixi vagon” muxammasi orqali jamiyatda yuz bergan tarixiy voqea, o‘zgarishlarga munosabatini ifodalaydi. Ibratda millatni mutaraqiy xalqlar qatorida ko‘rish istagi juda kuchli edi. “Tarixi vagon” muxammasida shoir millatni yangi ilm-fan, texnika taraqqiyotidan bahramand bo‘lishga da’vat etadi. Jadid adabiyoti vakillaridan Kamiy, Xislat, Sidqiy Ajziy, Tavallo, Ahmad Tabibiy muxammaslarida ham ijtimoiy-madaniy hayot, ilm-ma’rifat, madaniyat, millat taqdiri, yurt qismati tasviri asosiy o‘rin tutadi. Bu muxammaslardagi hurfikrlilik, yangilikka intilish g‘oyalarida, obraz va ifoda izlashda ko‘zga tashlanadi. Davr muxammaslarining mumtoz adabiyotdagi asarlardan farqi – ularda zamonaviy mavzularni yoritish, fan-texnika yangiliklarini jamiyatga olib kirishga intilish, millatni ma’rifatli ko‘rish, yurtni mustamlaka botqog‘idan chiqarish kabi masalalar yetakchilik qiladi. Muxammaslar xalq tiliga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ularda ruscha so‘zlarning salmog‘i katta.

Bobning ikkinchi fasli *“Sobiq sho‘ro davri she‘riyatida janr strukturadagi o‘zgarishlar”* tarzida nomlangan. Akademik N.Karimov o‘tgan asrning 30-yillaridan 90-yillarigacha bo‘lgan davrni “ijtimoiy silsilalar davri”⁶² deb ataydi. Bunda ijodkorlarning mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlaridan ta’sirlanib, an’ana va izdoshlik asosida yaratgan muxammaslari o‘ziga xos adabiy hodisadir. Yangi o‘zbek adabiyotining Habibiy, Charxiy, Chustiy, Sobir Abdulla, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Jamol Kamol, Dushan Fayziy, Jumaniyoz Jabborov, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Farid Usmon, Safo Ochil, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir, Oshiq Erkin, Matnazar Abdulhakim, Miraziz A‘zam kabi namoyondalari ijodida muxammas janrining adabiy izdoshlik va mahorat maktabi sifatidagi namunalari orqali mumtoz adabiyotimizning bebaho an‘analari davom ettirilgan. Sobiq sho‘ro davrida yaratilgan muxammaslarni jadvalda quyidagicha ko‘rsatish mumkin (4-jadval):

№	Muxammas yaratgan shoir	Ta’bi xud muxammaslar	Taxmislar	Jami
1	Habibiy	58	6	64
2	Chustiy	97	10	107
3	Charxiy	13	19	32
4	Sobir Abdulla	19	0	19
5	G‘afur G‘ulom	9	1	10
6	Erkin Vohidov	1	4	5
7	Abdulla Oripov	4	0	4
8	Rauf Parfi	0	2	2
JAMI		201	42	243

Habibiy, Chustiy, Charxiy, Sobir Abdulla, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi ijodida muxammas janrida yaratilgan she‘rlar ijodkorning o‘y-xayollari, tuyg‘u-kechinmalarini chuqurroq ifodalash, boshqa shoirlar bilan poetik mahorat bobida musobaqalashish, ijodda kuch sinash, ijodiy-

⁶¹ Исҳоқхон Тўра Ибрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 153.

⁶² Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008. – Б. 227.

ruhiy bahslashuv vositasi sifatida yuzaga chiqqan. Bu muxammaslarda mumtoz adabiyot an'analari davom ettirilgan. Taxmislar uchun Navoiy, Fuzuliy, Furqat kabi zabardast shoirlarning g'azallari tanlangan. Ta'bi xud muxammaslarida poetik mazmun va g'oya uyg'unligi, obraz yaratish, tasvir vositalarini qo'llashda ulug' salaflar ijodiga izdoshlik va ehtirom nazarga tashlansa, ba'zi yaratmalar badiiy jihatdan mukammallikka ega emas. Ayrim muxammaslarida go'zal obrazli ifodalar, poetik tasvirda originallik ko'zga tashlanmaydi. Ularda partiya va mavjud ijtimoiy tuzumni ulug'lash mazmuni ustunlik qiladi. Erkin Vohidovning Alisher Navoiy (3), Bobur (1), Fuzuliy (1) g'azallariga bog'lagan taxmisleri shoirning nafaqat barmoqda, balki aruz vaznida ham mahorat bilan qalam tebratganligidan dalolat beradi. Uning ulug' shoir "Aylagach" radifli g'azaliga taxmisi jo'shqin ruh, yuksak badiiyat va samimiy tuyg'ular ifodasiga ko'ra xarakterlidir. Mazmun, vazn, poetik tasvir uyg'unligi kishida asar bir ijodkorga tegishlidek tasavvur uyg'otadi. Taxmis bandida faol qo'llangan so'roq-murojaat ta'sirchan poetik manzara yaratishga xizmat qilgan: *Nega ul kun sochlaringni anbarafshon aylading? //Ro'zigorim tiyra, ko'zim kavkabiston aylading? //Qo'lga qo'ygachmu xinolar yo dilim qon aylading, //Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading, //Yo yuzingga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach*⁶³. Rauf Parfi ijodida Cho'lponning "Ko'ngil" she'riga yozgan taxmisi alohida o'rin tutadi. Bu taxmisi 1983-yilda yozilgan bo'lib, unda shoirning yurt ozodligidan chekkan xavotiri, xalqning og'ir qismatidan iztirobi va isyoni aks etgan: *Yuzlashding balolarga, alamlar ichra ko'zlashding, //O'zing kuyding, o'zing yonding, o'zgalar haqqi o'zlashding, //Bu qul bozorinda izg'ib qumrilar kabi bo'zlashding, //Ko'ngil, sen bunchalar nega kishanlar birla do'stlashding, //Na faryoding, na doding bor, nechun sen buncha sustlashding?*⁶⁴ She'r aruzning hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Taxmisda ham qoidaga muvofiq shu vazn saqlangan. XX asrning boshlari jadid shoirlari ijodida aruzdan barmoqqa o'tish jarayoni tezlashdi. Hatto aruzda yozilgan she'rlarni barmoq shaklida ifodalash, to'liq misralarni bo'lib tashlab yozish holatlari ko'zga tashlanadi. Bu holat bir jihatdan barmoqqa o'tish jarayoni bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, ritmik-intonatsion ohangni kuchaytirish, poetik mazmunni yorqinroq ifodalash maqsadida qo'llanilgan. Taxmisda qo'llangan tashbeh (qumrilar kabi, bulutdek), tanosub (balo, alam, faryod, dod, haqorat, tubanlik, kishanlar, qilichlar, xun, qon, hurlik, ozodlik, umid, kuyding, yonding, bo'zlashding, sustlashding), talmeh (Turonim, Ka'bam, Turkistonim), takrir (Alloh-Alloh), nido va tashxis (Ko'ngil, sen bunchalar nega kishanlar birla do'stlashding), tajohili orif vositasida Rauf Parfi timsolli tafakkurning chuqur falsafiy manzarasini chizib beradi.

Bobning uchinchi fasli ***"Istiqlol davri muxammaslarining mazmun-mundariyasi"*** deb nomlangan. Istiqlol yillarida Vatanga muhabbat, yurt madhi, ishq masalalari, qahramonlik ruhiyati, tarixiy qadriyatlar va boshqa mavzularda ko'plab asarlar yaratildiki, bu holni mustaqillik davri o'zbek adabiyotining alohida xususiyatlari sifatida baholash mumkin. U.Hamdami istiqlol davri she'riyatini "subyekt nidosi, ko'ngil izhori" sifatida baholab, ifoda usuliga ko'ra besh xil

⁶³ Эркин Воҳидов. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Муҳаббатнома. Шеърлар, дostonлар. – Тошкент: Фафур Фулом, 1988. – Б. 339.

⁶⁴ Рауф Парфи. Сакина. Сайланма. – Тошкент: Muharrir, 2013. – Б. 221.

ko‘rinishi mavjudligini qayd etadi: An‘anaviy barmoq. 2. Xalqona ohang. 3. Aruz. 4. Modernistik ifoda usuli. 5. Sinkretik (qorishiq) ifoda usuli⁶⁵. Binobarin, bu davr she‘riyatida yangi umrini yashayotgan janr sifatida muxammaslar badiiy strukturasida aruzni davom ettirish, barmoqda yozish, sinkretiklik xususiyatlari namoyon bo‘lganligi kuzatiladi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Omon Matjon, Rauf Parfi, Sirojiddin Sayyid kabi shoirlarning ta‘bi xud muxammaslari va Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqat, Ogahiy, Fuzuliy kabi mumtoz shoirlar g‘azallariga bog‘lagan taxmislari an‘anaviyligi, yuksak badiiyati bilan ajralib turadi. “Buyuk Navoiy g‘azallariga taxmis bog‘lashning mas‘uliyati tog‘dan ham og‘ir...Navoiy so‘zining fasohatu balog‘atini, hech bo‘lmaganda, muayyan darajada his etmay, aruz qoidalarini chuqur bilmay turib taxmischilik maydoniga qadam qo‘ygan kishi o‘zini uyatga qo‘yishdan o‘zga chora topolmas”⁶⁶.

Alisher Navoiyning o‘nlab g‘azallariga taxmis bog‘lashda zo‘r mahorat ko‘rsatgan, taxmisnavislik an‘analari asosida betakror asarlar bitgan Sirojiddin Sayyid ijodi boshqa zamonaviy shoirlardan ajralib turadi. “Hazrat Alisher Navoiyning “Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubdur” misrasi bilan boshlanuvchi mashhur tazmin-g‘azaliga bog‘lagan muxammasi barcha xususiyatlariga ko‘ra mumtoz she‘riyat maqomida ekanligi bilan qimmatlidir”⁶⁷. Taxmisnavislikni san‘at darajasida uddalash mahorati Sirojiddin Sayyidning qo‘llagan har bir so‘z, “navoiyona obraz”ida namoyon bo‘lib, ulug‘ shoirga ruhan yaqinlik, ko‘hna aruzning munosib davomchisi ekanligidan dalolat beradi: *Kim qoshinga mubtalo bo‘lubtur – //Ul ikki qilich aro bo‘lubtur, //Dil ichra iki yaro bo‘lubtur, //Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur, //Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubtur*⁶⁸.

O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos ovoz, she‘r o‘qish uslubiga ega Omon Matjon muxammaslari poetik idroq va mahoratning betakror namunalaridir. Mumtoz ana‘analarning benazir davomchisi sifatida Alisher Navoiyning “G‘aroyib ussig‘ar” devonidan o‘rin olgan 238-g‘azalga bog‘langan taxmis o‘zbek poeziyasi xazinasidan munosib o‘rin olgan. Taxmisnavislikning g‘oyat nozik va murakkab talablariga to‘la bera olgan mazkur she‘rda inson qalbining turfa kechinmalari, evrilishlari, jilolari shu qadar mahorat bilan tasvirlanganki, she‘r yaxlit bir butunlik hosil qilgan. Omon Matjon ulug‘ shoir badiiy niyatini tashbeh, istiora, tanosib, talmeh, mubolag‘a kabi badiiy vositalar orqali ifodalab, ularning har biriga yangicha ma‘no yuklaydi. Taxmis bandlarida qo‘llangan talmeh esa o‘quvchiga tasvirlanayotgan g‘oya, timsol va tuyg‘ularning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglatishga xizmat qilgan: *Charx avzoyi bu dam avvalgilarg‘a o‘xshamas, //Kotib-u davr-u raqam avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas. //Endi inson qadri ham avvalgilarg‘a o‘xshamas, //Ko‘nglum ichra dard-u g‘am avvalgilarg‘a o‘xshamas, //Kim ul oyning hajri ham avvalgilarg‘a o‘xshamas*⁶⁹.

⁶⁵Хамдамов У. Истиклол даври ўзбек шеърятининг ўзига хос хусусиятлари. “Istiqlol davri o‘zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 268-275.

⁶⁶ Жабборов Н. “Икки қилич аро...” Шарқ юлдузи, 11-сон, 2023 йил. – Б. 66.

⁶⁷ О‘sha joyda. – Б. 67.

⁶⁸<https://sirojiddin.sayyid/asarartuplami/3-jild>

⁶⁹ Omon Matjon. Maqsudam. She‘rlar. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B.48.

Omon Matjon ijodida muxammasnavislikning mazmuniy takomilini aks ettirgan muxammasi muloqoti Ogahiyning “Ustina” radifli g‘azali asosida yaratilgan bo‘lib, shoirning Ogahiy bilan kechgan ruhiy muloqoti sifatida o‘ziga xoslik kasb etadi.

Ta’bi xud muxammaslarda, asosan, Vatan, erk, ozodlik, ilm-ma’rifat, millat taraqqiyoti motivlari yetakchilik qiladi. Mahmud Toir, Ismoiy Mahmud, Oshiq Erkin, Olqor Damin, Sirojiddin Sayyid muxammaslarida vazn saktalıkları uchraydi. Istiqloл davrida yaratilgan muxammaslarni jadvalda quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

(5-jadval)

№	Muxammas yaratgan shoir	Ta’bi xud muxammaslar	Taxmislar	Jami
1	Erkin Vohidov	2	2	4
2	Abdulla Oripov	4	1	5
3	Rauf Parfi	0	1	1
4	Jamol Kamol	1	7	8
5	Omon Matjon	6	2	8
6	Miraziz A’zam	0	19	19
7	Mahmud Toir	37	0	37
8	Sirojiddin Sayyid	7	6	13
9	Safo Ochil	35	6	41
10	Iqbol Mirzo	8	0	8
11	Ismoil Mahmud	0	8	8
12	Oshiq Erkin	23	13	36
13	Olqor Damin	0	45	45
JAMI:		123	110	233

